

**O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA ONA
OBRAZI TALQINI****Nurmamatova Charos Faxriddin qizi**

O‘Zmu talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20326300>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasi ilmiy-badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda Ona obrazi orqali o‘zbek xalqiga xos mehr-oqibat, fidoyilik, bag‘rikenglik, matonat va milliy qadriyatlar yoritilgani ochib beriladi. Qissadagi alohida hikoyalar misolida onaning ruhiy olami, farzand tarbiyasidagi o‘rni hamda yozuvchining badiiy mahorati tahlil etiladi. Shuningdek, asarning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ma‘naviy-tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ona obrazi, mehr-muhabbat, fidoyilik, o‘zbek adabiyoti, O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, milliy qadriyat, badiiy tahlil, memuar qissa, ma‘naviyat.

Аннотация. В данной статье проводится научно-художественный анализ повести О‘tkir Hoshimov Dunyoning ishlari. Через образ Матери раскрываются такие качества узбекского народа, как доброта, самоотверженность, терпение, великодушие и национальные ценности. На примере отдельных рассказов анализируются духовный мир матери, её роль в воспитании детей, а также художественное мастерство писателя.

Особое внимание уделяется месту произведения в узбекской литературе и его духовно-воспитательному значению.

Ключевые слова: образ матери, любовь, самоотверженность, узбекская литература, Уткир Хашимов, «Дела света», национальные ценности, художественный анализ, мемуарная повесть, духовность.

Abstract. This article presents a scientific and literary analysis of O‘tkir Hoshimov’s memoir novella *Dunyoning ishlari*. Through the image of the Mother, the work reveals such qualities of the Uzbek people as kindness, devotion, tolerance, perseverance, and national values. Using examples from individual stories in the novella, the article examines the mother’s spiritual world, her role in raising children, and the writer’s artistic mastery. The study also discusses the significance of the work in Uzbek literature and its moral and educational value.

Keywords: mother image, love, devotion, Uzbek literature, O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, national values, literary analysis, memoir novella, spirituality.

O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Dunyoning ishlari” qissasi o‘zbek adabiyotining eng yuksak badiiy namunalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu asar nafaqat adibning bolalik xotiralari asosida yaratilgan memuar qissa, balki o‘zbek onasining ma‘naviy qiyofasini, fidoyiligi va ruhiy olamini teran badiiy tasvirlagan ulkan ma‘naviy obidadir. Asar katta-kichik hikoyalardan tashkil topgan bo‘lsa-da, ularning barchasini yagona ruh — Ona siymosi birlashtirib turadi. Shu jihatdan qissa oddiy voqealar yig‘indisi emas, balki onalik mehrining cheksiz qudratini ifodalovchi badiiy-falsafiy asardir.

Asarda yozuvchi sovet davridagi oddiy qishloq hayoti, urush va urushdan keyingi yillardagi qiyinchiliklarni o‘z onasi taqdiri bilan uyg‘unlashtirib tasvirlaydi. Muallif uchun Ona obrazi shunchaki bir inson emas, balki hayotning ma‘nosi, xonadonning tayanchi, insoniylikning eng oliy mezonidir. Adib voqealarni juda sodda, xalqchil va samimiy uslubda bayon qiladi. Shu sababli kitobxon asarni o‘qir ekan, undagi voqealarni begona emas, balki o‘z hayotiga daxldor hodisadek qabul qiladi. Asarning kuchi ham aynan ana shu tabiiylik va samimiyatdadir.

Qissada Ona obrazi, avvalo, cheksiz mehr va fidoyilik timsoli sifatida gavdalanadi.

Asardagi ona o'zbek ayolining eng go'zal fazilatlarini mujassamlashtirgan. U o'zi yemay farzandiga yediradi, o'zi kiymay bolasini kiydiradi, butun umrini oilasi va farzandlari uchun bag'ishlaydi. "Oq oydin kechalar" hikoyasi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Unda onaning tunlari uxlamay, yulduzlarga termulib farzandlari baxtini tilashi tasvirlanadi. Bu holat oddiy voqea bo'lib ko'rinsa-da, unda onalik qalbining cheksizligi, mehrining ilohiy mohiyati aks etadi.

Ona uchun farzand baxti hayotning eng buyuk maqsadidir. Yozuvchi ushbu hikoya orqali onaning ichki dunyosini nihoyatda lirik va ta'sirchan bo'yoqlarda ochib beradi.

Asarda onaning mehnatkashligi va matonati ham chuqur yoritilgan. Uning hayoti urushning og'ir yillariga to'g'ri keladi. Yetishmovchilik, ocharchilik va turmush qiyinchiliklari unga tinimsiz sinov bo'lib keladi. Shunga qaramay, u hech qachon nolimaydi, taqdir oldida bosh egmaydi. "Tush" hikoyasida onaning bolalarini boqish uchun eng qadrlil buyumlarini oziq-ovqatga almashtirgani tasvirlanadi. Ayniqsa, uning tushida farzandlarini suvdan qutqarishga urinishi onaning ruhiy izzatlarini va farzand taqdiri uchun har qanday qurbonlikka tayyorligini yorqin ifodalaydi. Bu epizod orqali yozuvchi onalik tuyg'usining naqadar buyuk va muqaddas ekanligini ko'rsatadi.

Qissadagi Ona obrazi oliyjanoblik va bag'rikenglik fazilatlarini bilan ham ajralib turadi. "Giyoh olar odamni" hikoyasida bunga yaqqol misol keltiriladi. Onaga ko'p ozor bergan qo'shni ayol kasal bo'lib qolganda, u barcha gina-kuduratlarini unutib, unga yordam berishga oshiqadi, tog'lardan shifobaxsh giyohlar terib keladi. Bu holat onaning insoniylikni hamma narsadan ustun qo'yishini ko'rsatadi. Yozuvchi yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytaruvchi bu ayol timsolida xalqimizga xos bag'rikenglik va kechirimlilikni ulug'laydi. Ona qalbida hasad, adovat yoki nafrat yo'q; uning butun borlig'i mehr va ezgulikdan iborat.

Asarda onaning murabbiylik va ma'naviy tarbiyachi sifatidagi qiyofasi ham muhim o'rin egallaydi. "Haqqush" hikoyasida bolalar qushni otib qo'rganida, ona ularga tabiatga ozor berish gunoh ekanligini sodda, ammo nihoyatda ta'sirli tarzda tushuntiradi. U bolalar qalbiga rahmshafqat, vijdon va insof tuyg'ularini singdiradi. Bu orqali yozuvchi onani nafaqat farzand tarbiyalovchi inson, balki milliy qadriyatlar va xalq donoligining davomchisi sifatida tasvirlaydi.

Onaning har bir o'giti, har bir nasihati farzand qalbida umr bo'yi saqlanib qoladigan ma'naviy saboq darajasiga ko'tariladi.

Qissada milliy ruh va xalqona tasvir usuli juda kuchli. Yozuvchi oddiy qishloq hayotini, insonlar o'rtasidagi samimiy munosabatlarni tabiiy va jonli ifodalaydi. Asardagi suhbatlar, xalqona iboralar, urf-odatlar va turmush manzaralari kitobxonni voqealar ichiga olib kiradi. Shu sababli asar o'zbek xalqining ma'naviy olami, qadriyatlari va oilaviy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim badiiy manba hisoblanadi.

Asarning yana bir muhim jihati shundaki, unda Ona obrazi umumlashma darajasiga ko'tarilgan. Muallif o'z onasi haqida yozgan bo'lsa-da, kitobxon unda o'z onasini ko'radi.

Chunki asardagi mehr, fidoyilik, izzat va g'am barcha onalarga xos umuminsoniy tuyg'ulardir. Shu bois qissa milliy chegaradan chiqib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Asarni o'qigan har bir inson o'z onasi oldidagi burchi va qarzi haqida o'ylab qoladi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning qissaga bergan bahosi ham asarning yuksak badiiy qiymatini tasdiqlaydi. U "Dunyoning ishlari"ni qissa emas, doston deb atashni istaganini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, asar qo'shiqdek ravon o'qiladi, undagi samimiyat va hayotiylik kitobxon qalbiga chuqur ta'sir qiladi. Yozuvchi insonni insofqa, ota-onani qadrlashga, mehr-oqibatli bo'lishga chorlaydi.

“Dunyoning ishlari” qissasi o‘zbek adabiyotida onalik mavzusini eng teran va ta’sirchan yoritgan asarlardan biridir. O‘tkir Hoshimov ushbu qissa orqali ona mehrining buyukligini, uning inson hayotidagi beqiyos o‘rnini badiiy mahorat bilan ochib bergan. Asar insonni o‘z onasini qadrlashga, mehr-oqibat va vijdon bilan yashashga undaydi. Shu jihatdan qissa nafaqat yuksak badiiy asar, balki katta tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan bebaho adabiy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 336 b.
2. Said Ahmad. Adabiyot va ma’naviyat haqidagi maqolalar. – Toshkent: Sharq, 2006.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2013.